

– худудий инфратузилма ва хизмат кўрсатиш объектлари ис-
лоҳ қилинади;

– хизмат соҳасига оид янги касблар ўрганилади ва бошқалар.

– мамлакат бозорини хизматлар билан тўлдириб боради ва ун-
га бўлган талабни қондиришга имконият яратади;

– хусусий тадбиркорлар ва бошқа нодавлат ва давлат инвес-
торлари маблағлари ҳисобидан янги иш ўринларини очади;

– хизматларга бўлган эҳтиёжни қондириш эвазига мамлакат
аҳолисининг фаровонлигини оширади;

– ўз ишловчиларини ойлик маоши билан таъминлаб туради ва
уларнинг оиласини тебратиш имкониятини яратади ва ҳ.к.

Бугунги кунда, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ўз ўр-
нини аҳолига маиший хизмат кўрсатиш соҳаларида ҳам топмоқда.
Хусусан, маданий-маиший ва оила ҳўжалиги ускуналарини ижарага
бериш ва таъмирлаш ишлари, хусусан, кийим кечакларни таъмир-
лаш, аҳолига юқори савияда транспорт хизматини кўрсатиш (йў-
ловчиларни ташиш), хонадонларга зарур ҳўжалик буюмларини (ме-
бель, қурилиш материаллари, истеъмол товарларини) етказиб бе-
риш учун керакли хизматлар кўрсатилмоқда.

Хизматлар соҳасини ривожлантириш бандлик муаммосини ай-
ниқса, хотин-қизлар, қишлоқ ёшларини иш билан таъминлаш, оила-
ларнинг даромадини сезиларли даражада кўпайтириш, бутун мам-
лакатимиз аҳолисининг фаровонлигини ошириш имкониятини яра-
тади. Бу биринчидан, аҳолини иш билан таъминлаш орқали оила-
ларнинг муҳим даромад манбаи ва мулкдорлар синфини шаклан-
тиришнинг асоси бўлса, иккинчидан, мамлакатимиз бозорининг
хизматларга бўлган эҳтиёжини қондириш орқали аҳолининг тур-
муш даражасининг ошишига сабаб бўлади.

SOTSIAL TURIZMNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

U. Matyakubov (UrDU iqtisodiyot kafedrası mudiri),


I. Yusubov (UrDU "Iqtisodiyot" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti)

Сотсиал туризм – иқтисодий категория hisoblanadi, chunki bu iqtiso-
diy jarayon bo'lib, turizm faoliyatining ayrim tomonlarini ifoda etuvchi
ilmiy-nazariy tushunchadir. U turizmning aynan kam ta'minlangan va ij-
timoiy himoyaga muhtoj aholiga mo'ljallanganligi bilan, moliyalashti-
rish shaklining farqli tomonlarini ifodalaydi. Yuqoridagi ta'riflarda Sot-

sial turizm iste'molchilariga bolalar, yoshlar, qariyalar, o'quvchilar, na-
faqaxo'rlarni umumiy tushuncha bilan, ya'ni kam ta'minlangan va ijti-
moiy himoyaga muhtoj aholi qatlami atamasi bilan atash mumkin.

Ushbu aholi qatlamining sotsial turizmda ishtiroki davlat va nodav-
lat jamg'armalari (pensiya jamg'armasi, kasaba uyushmalari jamg'arma-
si va boshqa jamg'armalari), homiylar va turizmga faoliyat ko'rsatuvchi
korxonalar (turoperatorlar, mehmonxonalar va boshqa joylashuv vosita-
lari), shuningdek, jismoniy shaxslar (bolalarini turistik sayohatga yubor-
ayotgan ota-onalar, homiylik orqali yaqin qarindoshini yoki kam ta'-
minlangan insonlarni turistik sayohatga yuborayotgan ishbilarmonlar)
tomonidan moliyalashtirishi mumkin.

Sotsial turizm ta'rifidan ma'lum bo'lishicha, iste'molchilar tarkibi,
ularning sayohat maqsadi, sayohatning moliyaviy ta'minoti nuqtayi na-
zardan bir necha turlarga ajratish mumkin. Sotsial turizm turlarini qu-
yidagicha tasniflash maqsadga muvofiq (1-chizma).



1-chizma. Sotsial turizm turlari.

Sotsial turizm turizmning boshqa turlari kabi boshqa xizmatlardan ajralib turuvchi xizmatlar majmuasiga egadir. Sotsial turizm xizmatlari boshqa turizm xizmatlaridan quyidagilar bilan farqlanadi:

- bolalar hamda aqliy va jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlarning turistik sayohatlarida maxsus malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar ishtirokining, maxsus tartibda o'rnatilgan nazoratning, yuqori darajada ishonchning mavjudligi;

- sotsial turizm faoliyat ko'rsatuvchi joylashuv vositalarining, ovqatlanish va transport xizmatlarini taklif qiluvchi korxonalarining o'ziga xosligi, ya'ni sotsial turizm iste'molchilariga taklif etiladigan xizmatlar majmuasining boshqa turdagi turistik mahsulotlardan farq qilinishi;

- sotsial turizm xizmatlarining turli manbalardan moliyalashtirilganligi sababli, boshqa turdagi turistik mahsulotlardan farqli ravishda, kichikroq hajmda taklif etilishi, ya'ni sotsial turizm xizmatlar iste'molchisi yo'llanma tarkibiga kirgan asosiy xizmatlardan (joylashuv, ovqatlanish, zaruriy davolanish muolajalari) tashqari bo'lgan boshqa xizmatlarni qo'shimcha haq evaziga xarid qilishlari mumkinligi va shu kabilar.

Sotsial turizm faoliyatida umumqabul qilingan xalqaro atamalarga, asosan, uning mohiyatini, faoliyat doirasini va mazmunini ifodalovchi quyidagi tushunchalar ishlatiladi: Sotsial turizm, sotsial turizm sohasidagi turistik faoliyat, sotsial tur, sotsial turni xarid qilish qobiliyatining bazali standartlari, qo'shimcha to'lovli xizmatlar, sotsial tur ishtirokchisi, sotsial turizm tashkiloti, sotsial turizm ishtirokchisining a'zolik kartasi, marshrut kitobchasi (varaqa), ta'til cheki.

Har bir mamlakatda sotsial turizm xizmatlarini tashkil etish quyidagi omillarga bog'liq:¹

- turli sohalar o'rtasida (davlat, xususiy va ijtimoiy soha) hamkorlikni shakllanganligiga bog'liq bo'lib, unda barcha sektorlarning o'zaro aloqadorligi natijasida sotsial turizmni moliyalashtirish va uni amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi;

- sayohatlarning turli toifadagi ishtirokchilari ehtiyojlariga mos keladigan turizmning yangi ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarini yaratish. Sotsial turizmning yangi tizimlari va ular bilan bog'liq chora-tadbirlar yaratiladi;

- turli darajadagi (milliy, hududiy, mahalliy) turistik ma'muriyat, shuningdek, bevosita turizm bilan bog'liq sotsial birlashmalar va tashki-

¹ Менеджмент туризма. Экономика туризма. М. "Финансы и статистика", 2004, с. 162.

lotlar o'rtasidagi hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yilganligi. Ushbu hamkorlik natijasida sotsial turizmда yangi mahsulotlarni yaratish, ichki turistik infratuzilmani yangilash va takomillashtirib borish imkoniyati tug'iladi;

– sotsial turizm faoliyatini inson rivojlanishiga yordam beruvchi sotsial, ta'lim va madaniy masalalarning umumiy yechimiga qaratilganligi. Turli rekreasion va yangi obyektlarni o'rganish bilan bog'liq turlarning yaratilishi;

Mamlakatimiz iqtisodiyotida turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, yangidan yangi turizm yo'nalishlarini ochish bugungi kunning muhim dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, sotsial turizm sohasini rivojlanishi turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Актуальные проблемы и перспективы развития индустрии гостеприимства: сб. науч. тр. по материалам X междунар. науч.-практ. конф. СПб., 2014, 159 с.
2. Ускова Т.В. Социально-экономический ресурс туризма: моногр. Т.В. Ускова, Л.В. Дубиничева, В.С. Орлова. Вологда, 2011, 182 с.
3. Менеджмент туризма: экономика туризма. М., "Финансы и статистика", 2004, с. 162

МЕҲМОНХОНАЛАРДА МАРКЕТИНГ МУҲИТИНИ ЯХШИЛАШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Д.Худайберганов, С.Рахимова, Ш.Жуманиязова (УрДУ)

Меҳмонхоналарда маркетинг муҳитини яхшилаш учун меҳмонхона раҳбарияти ўз фаолиятини дастлабки таҳлилдан ўтказиш ва режалаштиришда турли-туман ахборотга эҳтиёж сезади. Унга миждозлар, рақиблар, маҳсулот етказиб берувчилар ва бозор муносабатларининг бошқа иштирокчилари ҳақида маълумотлар керак бўлади. Аксарият меҳмонхоналар одамлар билан мулоқот қилиш, уларни кузатиш ва саволлар бериш орқали ўзига керак бўлган маълумотларни олади.

Бугунги кунда бу ишларда ахборот нафақат кўп, балки сифатли бўлиши керак. Меҳмонхоналар янада мукамал маркетинг стра-